



ERONGA MO'G'ULLAR ISTILOS I VA OQIBATLARI

Aliboyev Dilshod Davron o'g'li
Shodiyev Shodiboy Zokirjon o'g'li
Guliston Davlat Universiteti

Annotatsiya. *Manbalarda Mo'g'uliston hududida miloddan avvalgi II ming yillikdan boshlab ko'chmanchi chorvador qabilalari istiqomat qilganliklari haqida ma'lumotlar uchraydi. Ma'lumki, bu yerda dastlabki davlat uyushmasi miloddan avvalgi III asrda paydo bo'ladi. Bu – xunlar saltanati – ilk feodal tipidagi davlat edi.*

Annotatsiya. *Sources indicate that nomadic pastoralist tribes have inhabited the territory of Mongolia since the 2nd millennium BC. It is known that the first state union appeared here in the 3rd century BC. This was the Hunnic Empire, the first feudal state.*

Key words. *Khumortegin, Khorezm, Ozlokshah, Caspian Sea, Urgench*

Kalit so'zlar. *Xumortegin, Xorazm, Ozloqshoh, Kaspiy dengiz, Urganch*

1221 yilning qishida Xorazmshohning o'g'illaridan Jaloliddin, O'zloqshoh va Oqshoh Kaspiy dengizining janubiy sohilidagi oroldan Urganchga qaytib keldilar. Urganch shahzodalari xorazmshoh Muhammad to'ng'ich o'g'li Jaloliddinga taxtni topshirishni vasiyat qilganligini e'lon qildilar. Bu ishdan qipchoq lashkarboshilari norozi bo'ldilar. Ular Jaloliddinni yomon ko'rardilar, shuning uchun O'zloqshoh bilan birgalikda yangi xorazmshohga qarshi ig'volar boshladilar. Ko'p vaqt o'tmay Jaloliddinni o'ldirish maqsadida uyushtirilgan fitna ham fosh qilindi: Jaloliddin bunday vaziyatda Urganch mudofaasini sira ham tashkil etib bo'lmazligiga ishonch hosil qilib, Temur Malik va kichik otryadi bilan birga Urganchdan yashirincha Xurosonga jo'nab ketadi. Tez vaqtda Urganchdan O'zloqshoh ham ukasi bilan qochib ketadi. Urganch lavang, qo'rqqoq amir xumortegin qo'lida qoladi. Humortegan-o'zini sulton deb e'lon qilib, poytaxtni mo'g'ullardan himoya qilishga va'da beradi. Bu voqealar bo'lib turganda Urganch yaqiniga ko'pgina mo'g'ul kuchlari kelib to'planadi. Shimol tomondan Jo'ji,

Buxoro tarafdin Chig'atoy va O'g'adoyning askarlari keladi, 1221 yilning boshida, qishda Urganch qamal qilinadi; Urganch katta shaharlar orasida mo'g'ullarga kuchli qarshilik ko'rsatgan shahar edi.1

Shahar aholisi qamalga zo'r tayyorlanadi. Ammo Xumortegin yuraksizlik qilib shahar darvozasini mo'g'ullarga ochib berib taslim bo'ladi. Mo'g'ullar shahar darvozalaridan bostirib kirib, ba'zi mahallalarni egallaydilar. Jang boshlanib ketadi. Xalq qadrdon shahrining har bir qarich erini mardona himoya qilib, mardlik va fidokorlik namunalari ko'rsatadi. Shunga qaramay, shahar besh oy davom etgan

qamaldan so'ng taslim bo'ladi. G'azabl原因 mo'g'ullar shaharni talon-toraj qiladilar va aholisini qiradilar. Manbalarda ko'rsatilishicha, har bir jangchiga 24 tadan asir berilgan. Shunday qilib, Urganch qamalida 50 ming askar qatnashgan Ibn Asir Urganchning halokatini mana shunday tasvirlaydi: «Mo'g'ullar to'g'onni ochib yubordilar, butun shaharni suv bosdi, hamma imoratlar buzildi .. Shaharda yashovchilardan hech kim omon qolmadi... Hamma narsa er bilan yakson bo'ldi».

Urganchning taslim bo'lishidan ilgari 1221 yilning bahorida Chingizxon Balxni, so'ngra esa katta jang va uzoq qamaldan keyin Marv shahrini olgan.

1221 yilda O'rta Osiyoda mo'g'ullar hukmronlik qilar edi. Endi bu erda Chingizxonga hech kim xavf-xatar solmas edi. Lekin g'arbda -Eron va sharqda-Hindistonda kurash davom etmoqda edi. Jaloliddin Eronning Xuroson va boshqa viloyatlariga qarshi yurish qilganida mo'g'ullarga qarshi kurashni davom ettirish uchun u erlardan o'ziga kerakli kuchlar topishni mo'ljallagan edi. U Niso, Nishopur, Hirot, G'azna, Eron va Afg'onistonning boshqa shaharlarini aylanib chiqishi kerak edi. Chingizxon o'z otryadiga Xurosonga boriladigan yo'lni kuzatib turishni buyuradi. Niso yonida 700 kishilik mo'g'ul otryadi poyloqchilik qildi. Jaloliddin ana shu otryadi bilan jang qildi. Jang mo'g'ullarning mag'lubiyati bilan tugadi. So'ngra Jaloliddin G'aznaga 30 ming kishilik qo'shin bilan kirib bordi. G'aznada ham xuddi shuncha askar bor edi. Uning qo'shinida amirlar -afg'on va qarluqlarning sardorlari bor edi. Bu otryadlar yaxshi qurollangan, ularning tajribali lashkarboshilari bo'lsa ham hali jipslashgan mustaqil bir qo'shin emasdi. Ko'chmanchi va o'troq feodallardan bo'lgan ayrim lashkarboshilar o'rtasida tez-tez nizolar bo'lib turar va bu nizolar qo'shinlarni boshqarishni qiyinlashtirardi. Jaloliddin feodallar qo'shinidagi ichki ziddiyatlarni engib chiqdi va o'zboshimcha lashkarboshilarni bir-biri bilan inoqlishtirib, mo'g'ullarga qarshi dahshatli kuchga aylantirdi. Xorazmshohning o'g'li Jaloliddin mo'g'ullarning qorama-qora ta'qib qilib kelayotganligini bilib, shoshilinch suratda katta jangga tayyorlandi. Panjsher vodiysidagi Parvona yaqinida katta jang bo'ldi va bu jang sinalgan lashkarboshi Shiki-Xutuxu boshliq mo'g'ul qo'shinining batamom mag'lubiyati bilan tugadi. Chingizxon oldiga qo'shinning tirik qolgan ozgina qismigina qaytib keladi. Bu g'alaba kuchlarning birdamligi va g'alabaga ishonchni bildirgan bo'lsa, mo'g'ullardek kuchli dushmani ham engish mumkinligini ham yaqqol ko'rsatdi.

Chingizxon o'ziga teng raqibga duch kelganligini bilib, Jaloliddinning katta kuch to'plashiga xalaqit berish uchun barcha choralarni ko'rdi. Mo'g'ullar ustidan g'alaba qozonilganidan keyin olingan katta o'lja tufayli Jaloliddinning lashkarboshilari o'rtasida o'zaro janjallar boshlandi. Bu janjallar lashkarboshilarning o'z erlariga ketib qolishlari bilan tugadi. Qo'shinlardagi askarlarning kamayishi bundan keyingi janglarga ma'lum darajada ta'sir qildi.

Chingizxon to'ppa-to'g'ri G'aznaga qarab bormoqda edi. Jaloliddin esa urushsiz chekinib, Hind daryosi qirg'oqlariga yaqinlashib bordi va bu erda 1221 yilning

noyabrida qattiq jang bo'ldi. Mo'g'ullarning pistirmalarga qo'yilgan 10 ming kishilik saralangan otryadi jangning oqibatini hal qildi.

Xorazmshoh taslim bo'lishni va o'z oilasining mo'g'ullar qo'lida qolishini xohlamay, xotini, onasini va bolalarini tik qirg'oqdan daryoga tashlab yubordi, o'zi esa otda Hind daryosining narigi qirg'og'iga suzib o'tib, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Dushmanining jasoratiga qoyil qolgan Chingizxon hatto uni ta'qib qilish fikridan ham qaytdi. Jaloliddin bilan birga uning 4 ming askari ham qutulib qoldi. Jaloliddin mo'g'ullarga qarshi kurashini davom ettirish maqsadida Zakavkazeda kuchli davlat barpo etmoqchi bo'ldi. Lekin u erda ham feodallar o'rtasidagi nizolar uning bu orzusini ro'yobga chiqishiga to'sqinlik qildi. 1227 yilda Kichik Osiyo, Suriya va boshqa viloyatlarning hokimlari Jaloliddinga qarshi ittifoq tuzdilar. Jaloliddinning Gruziya va Armanistonning xristian hokimlariga dushmanlarcha qilgan xatti-harakatlari natijasida bu xalqlarning unga qarshi ittifoqi vujudga keldi. Shunday qilib, uning Zakavkazedagi obro'-e'tiboriga putur etdi va mo'g'ullarga qarshi kurashning istiqboli qorong'i bo'lib chiqdi. Jaloliddin 1231 yili Kurdiston tog'larida halok bo'ldi.

Jaloliddin xalq ommasiga tayanmadi. Uning Xorazmga qilgan yurishlari davlatini saqlab qolishga va mo'g'ullar istilosiga qarshi qaratilgan bo'lsa da, ammo u g'alabaga erisha olmadi.

Chingizxon Jaloliddinni tor-mor qilib, Sharqiy va G'arbiy Afg'onistonni zabt etdi. Chingizxonning 1227 yilda vafot etishi uning g'arb tomonga siljib borishini to'xtatdi.

Shuni qayd qilish lozimki, Samarqandni bosib olgach, Chingizxon o'z qo'shinlarini bir nechta otryadga bo'lib, ularni O'rta Osiyo va Xurosondagi yirik shaharlarni bosib olishga jo'natadi. Uchta katta shohzoda — Jo'ji, Chig'atoy va Uqtoy — Urganch tomon yurish qilishadi. Xurosonga esa kenja o'g'il Tuluy yuboriladi. Uning qo'shinlarining etakchi qismlari Niso va Sabzavorni egallashadi. Tuluy esa Marvni xech qarshiliksiz egallaydi. Keyinchalik u Nishopurni talon-taroj qilib, vayronaga aylantiradi. Bu shahar maydoniga arpa ekiladi. Shaharlardagi aholi shafqatsiz qirib tashlanadi. Tuluy Tus, Hirot, Talikonni ham vayronaga aylantiradi. Natijada butun Xuroson talon-taroj qilinib, vayron qilinadi. Bomiyon shahri ham er bilan yakson qilinadi¹.

Feodallar xalq ommasini bosqinchilarga qarshi kurashga chaqirishdan qo'rqadilar. Zodagonlar asosan mo'g'ullar bilan kelishib, qarshilik ko'rsatmaslikka intildilar. Dehqonlar esa qurollanmagan edi. Ammo shaharlardagi aholi dushmanga qattiq qarshilik ko'rsatar edilar.

Tarixdan ma'lumki, ko'chmanchi qabilalarning, xoh ular arablar-badaviylar bo'lsinmi, xoh turklar-o'g'uzlar yoki boshqalar bo'lsinmi, o'troq dehqonchilik vohalariga bosqinlari har doim talon-tarojlar va vayronagarchiliklar bilan tugallanardi. Bunda ular stixiyali xarakterga ega bo'lgan. Chingizxon va uning sarkardalari esa atayin yovuzliklarni uyushtirganlar, dehqonchilik vohalarini va shaharlarni er bilan yakson qilish, aholini qirib tashlashni rejalashtirib qo'yganlar. Bu usulning

tashabbuskori Chingizxonning o'zi bo'lgan. V.V.Bartoldning fikricha, bu holat mo'g'ul qo'shinlarining umumiy miqdoridan kelib chiqqanki, mo'g'ullar qo'shini 200 ming kishidan ortmagan, ulkan bosib olingan hududlarni itoatkorlikda saqlash uchun bu albatta etishmagan. Shuning uchun ham qarshilik ko'rsata oladigan odamlarni ommaviy qirg'inbarot qilish, terror tizimini amalga oshirish yo'li bilan Chingizxon bo'ysundirilgan xalqlarni qo'rqitishga va zaiflashtirishga, bosqinchilarga qarshi uyushtiriladigan qo'zg'olonlarning oldini olishga intilgan². Bu tizimga qarshi Chingizxonning o'g'illari – Jo'ji va Uqtoy chiqqanlar, ammo ko'pchilik mo'g'ul ko'chmanchi feodallari bu tizimni qo'llab-quvvatlashgan, chunki bu usul sonsiz o'ljalarni olishga yordam berardi.

Xullas, Chingizxon va uning sarkardalari O'rta Osiyo va Xurosonni bosib olib, Tinch okeandan to Kaspiy dengizi qirg'oqlarigacha cho'zilgan ulkan Mo'g'ullar imperiyasiga asos solishdi.

Mo'g'ullarning asosiy harbiy kuchlari vatanlariga qaytgan bo'lishsa-da, Sharqiy Eronning bo'ysundirilgan viloyatlarida bosqinchilarning katta bo'lmagan otryadlari o'z oilalari va chorvalari bilan birga qolib ketishdi. Yaqin orada gullab-yashnagan vohalar endilikda yaylovlarga aylantirildi. Mo'g'ullarning bosqinlari butun musulmon Sharqini o'zining shafqatsizligi bilan va vaxshiyliги bilan larzaga keltirgan edi. Mo'g'ullarga qarshi kurashish uchun doimo o'zaro nizolarda bo'lgan barcha feodal hukmdorlari birlashishi lozim edi, biroq bunday bo'lmadi.

1228 yilda mo'g'ullarga qarshi qahramonona kurashayotgan Jaloliddin Manguberdining qo'shinlari Isfaxon yonidagi jangda mo'g'ullar ustidan g'alaba qozondi. Biroq katta yo'qotishlar sababli dushman ketidan quvib bormadi. 1229 yilda esa Eronga no'yon Chormagun boshchiligida yangi mo'g'ullar qo'shini kirib keladi va Jaloliddinga qarshi urusha boshlaydi. 1231 yilda zaiflashgan Jaloliddin qo'shin qoldiqlari bilan Janubiy Qurdistonga qochib ketadi. Tez orada u Amid shahri yonida (Diyarbakir, Turkiya) xaloq bo'ladi.

Jaloliddin vafotidan keyin mo'g'ullar Ozarbayjon, Arran, Shirvon, Gruziya, Armanistonni bosib olishadi (1231 - 1239 yy). Ayni vaqtda Erondagi mo'g'ul bosqinlari ham davom ettiriladi.

1237 yilda Isfaxon, Jazira (Yuqori Mesopotamiya) bosib olinib, talon-taroj qilinadi. Mo'g'ul qo'shinlari G'arbdagi qo'shni vilyatlarni ham talon-taroj qiladilar. Xususan, 1231—1236 yillarda Mosul, Nisibin, Mardin, Diyarbakir, Bidlis shaharlari mo'g'ullar tomonidan talon-taroj qilinadi. XIII asr 40-chi yillar o'rtalarida mo'g'ullar Kichik Osiyodagi Saljuqiylarning Rum sultonligiga zarba berishadi. 1243 yilda Kyose-dog' yonidagi jangda Rum sultoni Saljuqiy G'iyosiddin Kaykubod tor-mor qilinadi. U mo'g'ullarga bo'ysunib, ularga o'lpon to'laydigan bo'ladi.

XIII asr 50-chi yillariga kelib, mo'g'ul bosqinchilari Xuroson, Seyiston, Mozandaron, Fors Iroqi, Ozarbayjonni bosib olishadi. Eronning janubi va janubi-

g'arbida mo'g'ullar bosqinchiligi uncha katta talafot keltirmaydi. Bu hududdagi mulklar mo'g'ul xonlariga turlicha munosabatda bo'lishadi.

Jumladan, Kermenda qoraxitoylar sulolasi hukmronlik qilgan bo'lib, uning asoschisi Burak hojib Ettisuvda qoraxitoylar davlati xaloq bo'lganidan keyin Muhammad Xorazmshoh bilan birlashadi, mo'g'ullar bosqin davrida esa Kerman va Kerman viloyatini egallab oladi. Mo'g'ul xonidan u o'l mulkiga ruhsatnoma (tamg'a) va "qutlug'-xon" unvonini oladi.

Fors otabek Abu Bakr hukmronligi ostida bo'ladi (1230—1260 yillarda hukmronlik qilgan). U Salguriylar sulolasining vakili bo'lib, bu sulola o'z poytaxtlari — Shiroz shahrini har tomonlama yuksalishi uchun harakat qilishadi. O'sha davrda Shirozda buyuk shoir Sa'diy Sheroziy ham yashagan (1184—1291).

Luriston X asr boshlaridan ikki qismga — janubi-sharqiy, Katta Lur (Xazoraspiylarning otabeklar sulolasi), va shimoliy-g'arbiy, Kichik Lurga bo'lingan edi. Kichik Lurda ham mustaqil otabeklar sulolasi hukmronlik qilgan.¹

Luristondan g'arbda Abosiylar xalifaligining mulklari joylashgan. Ismoililarning Alamutlar davlati mo'g'ullar bosqiniga uchramagan.

Buyuk xon Uqtoy hukmronligi davrida (1229-1241 yy) ulkan mo'g'ullar imperiyasi ichki boshqaruv tizimini tartibga solish harakatlari qilindi. Uqtoy moliya ishlarini boshqarishni o'z maslahatchisi, kidanlardan kelib chiqqan Eluy Chusayga topshirdi. Boshqa harbiy va fuqarolik ishlarni boshqarishni esa uchta tumanboshiga yuklatdi. Pochta xizmatini yo'lga qo'yishga katta e'tibor berildi. Aholi tomonidan soliqlar to'lash va majburiyatlarni bajarilishini tartibga solish chora-tadbirlari ko'rildi. Uqtoy tomonidan e'lon qilingan qonun g'arbiy mamlakatlardagi voyaga etgan erkaklardan jon solig'ini kiritdi. Ko'chmanchilardan har bir yuz qo'ydan bitta qo'y olinardi. Bu qonun imperiyada ilgari hukmron qilgan tuzum, ya'ni har bir ovul uning aholisi bilan birga mo'g'ul no'yonlaridan biriga berilgan tartibdan voz kechishga asos soldi. Xon farmoni buyuk xon xazinasiga qaysi soliqlar kelib turishini, qaysilari mahalliy hukmdorlar qo'lida qolishi kerakligini belgilab berdi. Aholi ro'yxatdan o'tkazildi. Barcha aholi ma'lum ma'muriy hududlarga biriktirib qo'yildi.

Bosib olingan mamlakatlar va viloyatlar mahalliy feodallar boshqaruvi ostiga berildi, ular ustidan boshliq etib tayinlangan no'yon o'lpon to'lanishi uchun javob bergan. Shu bilan bir qatorda o'lpon to'lovlarini yig'ish boy savdogarlarga ham topshirilgan.

Uqtoy davrida Chingis-xon tomonidan boshlab yuborilgan Qaraqorum shahrining qurilishi nihoyasiga etkazildi. Bu shahar Mo'g'ul imperiyasining poytakhti bo'ldi. Unda ko'psonli hunarmandlar, jumladan bosib olingan mamlakatlardan keltirilgan hunarmandlar istiqomat qilishardi.

Imperiyadagi xalq ahvoli juda og'ir edi. Eluy Chusayning ma'lumot berishicha, oliy mansabdorlar sud va mansablarni sotardilar, qamoqxonalar sudxo'rlar talon-tarojiga chidamasdan ularga qarshilik ko'rsatgan aybsizlarga to'la bo'lgan. Xalq

ommasining noroziligi ochiq namoyishlarga aylandi. Uqtoy vafotidan 3 yil oldin O'rta Osiyoda Mahmud Torobiy qo'zg'oloni bo'lib o'tdi, unda dehqonlar va hunarmandlar ishtirok etdi.

Uqtoy o'limi taxt uchun kurashni avj oldirdi. 1245 yilda bo'lib o'tgan qurultoyda Uqtoyning o'g'li Guyuk xon etib saylandi. Rim papasi Innokentiy IV tomonidan buyuk xon qarorgohiga yuborilgan Fransiskan rohibi Plano Karpini, Gruziya podshohining ikkita o'g'li, rus knyazi Yaroslav Vsevolodovich (Aleksandr Nevskiyning otasi), Bag'dod xalifasi Mutasimning elchisi, Xitoy mansabdorlari bu voqea sodir bo'lganda ishtirok etdilar va guvohliklarini yozib qoldirdilar. Xon qarorgohiga Plano Karpinining kelishi, yaqin orada unga Fransiya qiroli Lyudovik IX elchisi Gilom de Rubrukning qo'shilishi G'arbiy Evropa hukmdorlari Buyuk Mo'g'ullar imperiyasi to'g'risida ma'lumotlar yig'ishga, unga nisbatan o'z siyosatini belgilab olishga intilayotganini ko'rsatardi. Bu davr so'nggi Salb yurishi davri edi.

Guyuk-xonning hukmronligi juda qisqa edi: u 1248 yilda uning hokimiyatini tan olishdan bosh tortgan Botu-xonga qarshi yurishga tayyorgarlik vaqtida vafot etdi. O'zaro nizolar boshlanib, Jo'jixon va Tuluyxon avlodlari Uqtoy va Chig'atoy avlodlariga qarshi kurashdilar. 1251 yilda Botuxon tarafdorlari ko'pchilikni tashkil etgan qurultoy Tuluyning o'g'li Munkeni buyuk xon etib sayladi. Yangi xon Uqtoy va Chig'atoy avlodlariga qarshi chiqdi, ulardan er egaliklarining katta qismi tortib olindi va Botu hamda Munkening egaliklariga qo'shib olindi.

Oldingi xonlar siyosatini davom ettirib, Munke ukasi Xulaguni qo'shin bilan g'arbga yuborib, Eronni bo'ysundirishni topshirdi. Boshqa ukasi Xubilayni esa Xitoyni butunlay bosib olishga yuborilgan qo'shinga sarkarda qilib tayinladi.

Yurishni boshlashdan oldin Xulagu mo'g'ul qo'shinlarini kuchaytirish tadbirlarini ko'rdi, bo'ysundirilgan mamlakatlar hukmdorlaridan otryadlarni jo'natishni talab qildi. 1256 yil oxiriga kelib u Eronni bo'ysundirdi va ismoiliylar qal'alarini bosib oldi. 1258 yil fevralida u bag'dodni qo'lga kiritdi. Xulagu Misrga ham yurish qilmoqchi edi, ammo 1260 yilda mo'g'ullar Ayn-Jalut yonidagi jangda mag'lubiyatga uchradilar va orqaga chekinishga majbur bo'ldilar. Bosib olingan Eronda esa Xulagu sulolasi boshchiligidagi elxonlar davlati barpo qilindi.²

Xulaguning g'arbga yurishi bilan bir vaqtda Xubilay qo'shinlari Janubiy Xitoyga bostirib kirdilar. Xubilayning yurishi 1259 yilga Munkening vafot qilgani tufayli tugatildi. Keyingi voqealar esa Mo'g'ullar imperiyasining ichki zaiyaligini va mustahkam emasligini ko'rsatdi.

Bu davrga kelib Mo'g'ullar imperiyasi o'z ichiga ulkan hududni kiritgan bo'lib, unda ko'psonli qabilalar, xalqlar va elatlar istiqomat qilishardi. Ular turli tillarda so'zlashardi, turli darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot pog'onalarida turardi, turli-tuman xo'jalik tartibi, turmush tarzi va shakllari, urf-odat va marosimlar, ko'nikma va malakaga ega edilar. Na iqtisodiy va na madaniy manfaatlar

imperiyaning turli qismlarini o'zaro bog'lamasdi. Bu tipik harbiy-ma'muriy birlashma edi.

Imperiyaning markaziy qismini buyuk xonlar domeni – Mo'g'uliston va Shimoliy Xitoy tashkil etardi. G'arbda Uqtoy avlodlari ulusi joylashgan bo'lib, unga Oltoy tog'laridan sharqdagi va g'arbdagi hududlar kirardi. Bu ulusning markazi hozirgi Chunqguchak shahri bo'lgan. Imperiyaning uchinchi qismini Chig'atoy avlodlariga qarashli ulus tashkil etardi. Unga O'rta Osiyoning Amudaryogacha bo'lgan sharqiy hududlari kirardi. Bu ulusning markazi Ili daryosi bo'yidagi Olmaliq shahri (hozirgi Kulji) bo'lgan. Eron, Iroq va Kavkazorti hududlari Xulaguning ulusiga kirardi. Uning markazi Tabriz shahri bo'lgan. Imperiyaning oxirgi, beshinchi qismi Jo'ji avlodlariga qarashli bo'lib, «mo'g'ul otlarining tuyoqlari etib olgan» barcha erlar, ya'ni mo'g'ullarning Sharqiy Evropadagi bosib olingan hududlari kirardi. Jujiylarning poytaxti Volga daryosi quyi oqimidagi Saroy shahri edi (hozirgi Astraxan yonida).¹

Munke Buyuk Mo'g'ullar imperiyasining mo'g'ul no'yonligi tomonidan tan olingan so'nggi hukmdori bo'ldi. Uning vafotidan keyin imperiya parchalanib ketdi. Uning vafotidan keyin buyuk hoqon taxtiga ikkita da'vogar – Xubilay va uning ukasi Arig'-bug'alar paydo bo'ldi. 1260 yilda Xubilay o'z sarkadalari va safdoshlarini yig'di, ular uni buyuk xon deb e'lon qilishdi. Ayni vaqtda Qorakorumda qurultoy bo'ldi, unda buyuk xon etib Arig'-bug'a saylandi. Ikkala buyuk xon o'rtasida urush boshlanib, to'rt yil davom etdi va Arig'-bug'aning mag'lubiyati bilan tugadi. Biroq bu urushda boshqa uluslar hukmdorlari, xususan xulaguyilar va jo'jiylar avlodlari ishtirok etishmadi. Bu uluslar hukmdorlari ko'pincha o'z ishlari va etilib borayotgan o'zaro urush bilan ovora bo'lgan edilar. Ularning nizolariga buyuk xon aralashmagandi. G'arbiy uluslar esa amalda Mo'g'ullar davlatidan ajralib chiqib, mustaqil davlatlarga aylandi. Endilikda Buyuk Mo'g'ullar imperiyasi o'z ichiga faqat Mo'g'uliston va Xitoyni kiritgan bo'lib, Xitoy hanuz oxirigacha egallanmagan edi¹.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Dilshod, A., Abdumatov, A., & Ismoil, R. (2025). FORMATION AND DEVELOPMENT OF HISTORICAL GEOGRAPHY GULISTAN STATE UNIVERSITY. *TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 47-53.

2. Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). YOZUV ISLOHOTI VA DINIY MEROSGA MUNOSABAT: INGLIZ OLIMLARINING YONDASHUVI. *YANGI O'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(9), 28-41.

3. Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). INGLIZ MANBALARIDA 1927–1938 YILLARDA O'ZBEKISTON MADANIY MANZARALARI: REPORTAJLAR, JURNALLAR VA ARXIV HUJJATLARI TAHLILI. *YANGI O'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(9), 11-27.

4. Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). XX ASRNING 20-30 YILLARIDA INGLIZ MANBALARIDA O 'ZBEKISTON MADANIYATING ASOSIY YO 'NALISHLARI VA MUOMMALARI DAVR TARIXSHUNOSLIGIDA. *TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 90-101.

5. Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). XX ASRNING 20-30 YILLARIDA INGLIZ MANBALARIDA O 'ZBEKISTON MADANIYATING ASOSIY YO 'NALISHLARI VA MUOMMALARI DAVR TARIXSHUNOSLIGIDA. *TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 90-101.

6. Ismoil, R., Dilshod, A., & Zilola, A. (2025). O 'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA TINCHLIKPARVARLIK TAMOYILLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI. *TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 203-214.

7. Zilola, A., Ismoil, R., & Dilshod, A. (2025). MISRDAGI SUV OSTI ARXELOGIYASI TADQIQOTLARIDAN. *TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 192-202.

8. Vildanovich, G. S., & Davron o'g'li, A. D. (2025). MARKAZIY OSIYO XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA (1992–2009): MINTAQAVIY TIZIM OSTINING SHAKLLANISHI VA EVOLYUTSIYASI. *YANGI RENESSANSDA ILM-FAN TARAQQIYOTI*, 1(2), 338-341.

9. Abdumatov, A., & Aliboyev, D. (2024). SOME CONSIDERATIONS FROM THE HISTORY OF DEFENSE FACILITIES OF CENTRAL ASIA. *Ilm-fan va ta'lim*, 2(4), 19.

10. Davron o'g'li, A. D. (2025). INSON, ONG VA BORLIQ: FALSAFIY YONDASHUV. *YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(5), 462-467.

11. Kurambayev, B., & Freedman, E. (2020). Ethics and journalism in Central Asia: A comparative study of Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan and Uzbekistan. *Journal of Media Ethics*, 35(1), 31-44.

12. Хамидова, Х., & Мирзаева, Н. (2022). Хх аsr boshlarida mirzachol vohasidagi agrar o'zgarishlar (—Туркестанское сельское хозяйство jurnali asosida). *Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы*, 1(1), 631-634.

13. Мирзаева, Н. Д., & Расулова, М. А. К. (2016). К вопросу о религиозном составе населения русских поселков в Голодной степи (начало XX века). *Проблемы современной науки и образования*, (11 (53)), 44-45.

14. Мирзаева, Н. (2011). Русские поселения Мирзачульского оазиса и их социально-экономическое положение в конце XIX–начале XX века. *Каталог авторефератов*, 1(1), 1-30.



15. Мирзаева, Н. Ж. (2025). XIX АСРНИНГ ОХИРИ XX АСР БОШЛАРИДА МИРЗАЧЎЛ ВОҲАСИ АҲОЛИСИНИНГ ДЕҲҚОНЧИЛИК МАДАНИЯТИДАГИ ТРАНСФОРМАЦИОН ЖАРАЁНЛАР. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 58-67.

16. OBID, N., ULUGBEK, M., SHAROF, M., & RUSTAM, N. (2022). SOME CONSIDERATIONS OF THE COUNTRY LIFESTYLE DURING THE PERIOD OF PUBLIC COLLECTIVIZATION. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(1), 86-94.

17. Nazarov, O. R., & Nematov, R. A. O. (2020). FROM THE HISTORY OF UZBEKISTAN'S COOPERATION WITH UNESCO. *Bulletin of Gulistan State University*, 2020(4), 45-49.

18. Назаров, О., & Қосимова, Э. (2024). ҚЎҚОН ХОНЛИГИДА ТАЪЛИМ ДАРГОҲЛАРИ ФАОЛИЯТИГА ОИД АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР. *Talqin va tadqiqotlar*, 2(3), 40.

19. Nazarov, O. R. (2020). THE ROLE OF HIPPOCRATES IN THE HISTORY OF WORLD MEDICINE. *Bulletin of Gulistan State University*, 2020(3), 66-64.

20. Nazarov, O. R., & Saydullayev, S. (2024). AVESTO. *EZGULIK TIMSOLIDIR*. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(1).

